

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI


FRANSUZ TILI FONETIKASI VA GRAMMATIKASI KAFEDRASI

XUDOYBERDIYEVA GULNOZ SUVONQULOVNA

FRANSUZCHA MAQOL VA MATALLARDA
«MEHNAT» KONSEPTI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : DOLIYEVA L.



Samarqand-2013

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TILDA FRAZEOLOGIK BIRLIK TUSHUNCHASI VA UNING TASNIFIY NEGIZLARI	
1. 1. Frazelogik birlik leksik-semantik sath doirasida	5
1. 2. Fransuz frazeologiyasi tilshunoslikda alohida fan sifatida	11
1. 3. Frazelogik birliklarni struktur, grammatik va semantik jihatdan tasniflash tamoyillari.....	16
I bobga xulosa	21
II BOB. FRANSUZCHA MAQOL VA MATALLARDA « MEHNAT » KONSEPTI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ...	
2. 1. Maqollar kommunikativlikning eng asosiy ko'rinishi sifatida.....	23
2. 2. "Mehnat" konseptiga oid maqollarning ifoda vositalari	26
2. 3. Maqollar kontekstida oppozitsiya hodisasi	29
2. 4. "Mehnat" konseptiga oid maqollarning leksik tahlili	32
2. 5. "Mehnat" konseptiga oid maqollarning semantik tahlili	37
2. 6. "Mehnat" konseptiga oid maqollarda grammatik arxaizmlar	42
2. 7. "Mehnat" konseptiga oid maqollarning grammatik strukturasi.....	44
II bobga xulosa	45
XULOSA	48
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	51
ILOVA. Fransuzcha "Mehnat" konsepti asosidagi maqollar ro'yxati	55

KIRISH

So'nggi yillarda fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy sohalarda mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi. Bunday vazifalardan biri chet tillarni o'rganish va o'rgatishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ta'biri bilan aytganda, "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir".¹

Darhaqiqat, xorijiy tillarni jumladan, fransuz tilini har tomonlama chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishimizda fransuz frazeologiyasidagi "mehnat" konseptiga oid maqol va matallarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi fransuz frazeologiyasidagi "mehnat" konseptiga oid maqol va matallarni struktur-semantik jihatdan tavsiflashdan iborat ekanligi bilan izohlanadi. Tilning frazeologik qatlamiga mansub "mehnat" konseptiga oid maqol va matallarni fransuz tili misolida ko'rib chiqish fransuz frazeologiyasidagi "mehnat" konseptini chuqur o'rganishga, unga xos lingvistik mohiyatni tavsiflashga, qolaversa, ularni badiiy matnlarda o'qib tushunish jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishning oldiga qo'yilgan asosiy maqsadi fransuz tilidagi "mehnat" konseptiga oid maqol va matallarning struktur-semantik tavsifi va ularning talqinidan iborat.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan masalalarni amalaga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratildi:

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Ўзбекистон, 1998. 8-бет.

- fransuz frazeologiyasining hozirgi zamon tilshunosligida tutgan o'rnini hamda frazeologiyaning tilning boyish manbai ekanligini tavsiflash;
- fransuzcha maqol va matallarga xos "mehnat" konseptining asosiy lingvistik mohiyatini namoyon etish;
- maqollarni kommunikativlikning eng asosiy ko'rinishi sifatidagi holatini tavsiflash;
- "mehnat" konseptiga oid maqollarning ifoda vositalarini namoyon etish;
- fransuzcha "mehnat" konseptiga oid maqol va matallarga xos struktur-semantik va grammatik kabi ichki tuzilishini tavsiflash;
- "mehnat" konseptiga oid maqollarda grammatik arxaizmlarni ko'rsatib berish.

Tadqiqot predmeti va ob'ekti. Tilshunoslikning eng serqirra jabhalaridan biri hisoblangan fransuz frazeologiyasi tadqiqot obyektni tashkil etsa, undagi aynan "mehnat" konseptiga oid maqol va matallar esa tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda tasviriy va distributiv tahlil qilish metodlaridan foydalanildi

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Frazeologiyaning sistem talqinidagi maqol va matallarning semantik, struktur, funksional qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradigan farazlar umumlashtirildi. Xususan, bitiruv malakaviy ishida "mehnat" konseptiga oid maqol va matallarga xos ichki xususiyatlarning rivojlanishidagi sistem ko'rsatkichlar tavsiflandi, fransuzcha "mehnat" konseptiga oid maqol va matallarning o'ziga xos xilma-xilligi namoyon etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishdagi tahlil natijalari asosida nazariy, amaliy va qiyosiy grammatika fanlarini o'qitishda, qolaversa, chet tillarini o'qitish va o'rganish jarayonlarida ham foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy tuzilishi. Qo'yilgan vazifalarning ketma-ket izchilligiga asoslanib, u kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB

TILDA FRAZEOLGIK BIRLIK TUSHUNCHASI VA UNING TASNIFIY NEGIZLARI

1.1. Frazelogik birlik leksik-semantik sath doirasida

Frazelogiya so'zi grekcha *phrasis* so'zidan olingan bo'lib, *ibora*, *nutq qurilmasi* degan ma'noni anglatadi. Bu so'z ikki xil ma'noni anglatadi. Birinchisi tilshunoslikning turg'un birikmalar, ya'ni frazelogik birliklarni o'rganuvchi ma'lum bir qatlami, ikkinchisi esa frazelogik birliklar majmuini ifodalash uchun xizmat qiluvchi atamadir. *Frazelogik birlik* atamasi tilshunoslikka birinchi bo'lib V.V.Vinogradov tomonidan kiritilgan. *Frazelogik birlik* va *frazelogiya* atamalari bilan bir qatorda *idioma* va *idiomatika* atamasi ham qo'llanadi. Biroq fransuz frazelogiyasida *Frazelogik birlik* atamasi o'rniga *locution* atamasi ishlatiladi. Ammo ushbu atamaning qo'llanishi keng qamrovli bo'lganligi sababli uni frazelogiyaning asosiy atamasi sifatida talqin qilish noo'rin. Negaki, bu atama fransuz tilidagi barcha iboralarni, frazelogik va nofrazelogik birliklarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu atamadan tashqari, fransuz frazelogiyasida *locution figée*, *expression idiomatique*, *idiotisme* kabi atamalar ham keng tarzda qo'llanadi. Shuningdek, *locution phraséologique* atamasi ham mavjud bo'lib, u fransuz frazelogiyasiga Sh.Balli tomonidan kiritilgan, biroq u ham keng tarzda qo'llanilish xususiyatiga ega emas.

Frazelogiyaning o'rganish obyektlarini FBlar, ya'ni turg'un so'z birikmalar, iboralar, nutqdagi barcha frazelogizmlar tashkil etadi.

Leksik-semantik sath tilning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki katta bo'limini o'z ichiga oladi. Bular leksikologiya (grekcha *lexikos* – *so'zga oid* va *logos* – *o'rganish*) va semasiologiya. O'rganadigan materialiga ko'ra leksikologiya ikkiga bo'linadi: xususiy leksikologiya, ya'ni u yoki bu til leksikologiyasi (masalan, fransuz, o'zbek, rus, nemis va boshqa tillar leksikologiyasi) va umumiy leksikologiya.

Umumiy leksikologiya barcha tillarga tegishli muammolarni o'z ichiga oladi va turli xil til materiallariga e'tibor qaratadi. Umumiy va xususiy leksikologiya bilan bir qatorda qiyosiy va solishtirma (kontrastiv) leksikologiya ham mavjud. Qiyosiy leksikologiya birinchi navbatda qardosh tillarning o'xshash tomonlarini, solishtirma leksikologiya esa nafaqat qardosh tillar, balki qardosh bo'lmagan tillardagi o'xshash va mos tomonlarni o'rganadi.

So'zning leksik ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan keng muammolar ko'lamini semasiologiya predmeti o'z ichiga oladi. «Semasiologiya» atamasi grekcha semacia – *ma'no* va logos – *o'rganish* so'zlaridan tashkil topgan. Ba'zi hollarda grekcha semaino – *ifodalayman* degan ma'noni anglatadi.

«Semasiologiya» atamasiga sinonim sifatida «semantika» atamasi ham ishlatiladi. So'z ma'nosiz umuman mavjud bo'lmasligi kabi leksikologiya va semantika ham bir-birlarisiz mavjud bo'lmaydi.

Leksikologiya tilning butun lug'at tarkibini o'rganadi. U leksika tarkibidagi tarixiy o'zgarishlarni aniqlaydi, aniq tamoyillar asosida boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar, arxaizmlar, neologizmlar, badiiy til leksikasi, jargonli, hududiy, shevaga xos terminologik, mutaxassislikka oid va boshqa leksik jihatdan bo'lingan so'zlarning turli xil leksik kategoriyalari va turlarini ko'rib chiqadi.

Semasiologiya o'rganish obyekti umuman tilga xos ma'no emas, balki leksik ma'nodir. Semasiologiya til leksikasini ma'lum bir aniq nuqtai nazar, ya'ni ma'no aspekti nuqtai nazaridan o'rganadi. Demak, butun leksikani leksikologiya o'rganar ekan, semasiologiya esa uning ma'lum bir bo'limi hisoblanadi va u leksikologiyaga nisbatan tobidir.

Semasiologiya leksik birliklarning ma'noviy tomonini o'rganadi va u leksik ma'no tabiati, turlari, so'z ma'nosining rivojlanish qonuniyatlari, so'z ma'nosi o'zgarishining turli xil tasniflashga doir muammolarini hal etadi. XIX asr an'anaviy tilshunosligida semasiologik tadqiqotlarning asosiy vazifasi alohida so'z va FBlarga xos semantik o'zgarishning turlarini va kelib chiqish sabablarini tadqiq qilishdan iborat edi. Til lug'at tarkibini sistema sifatida o'rganish va tildagi alohida ma'noli

elementlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish XX asr boshlarida til tarixidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Leksik–semantik sath leksik birliklarga xos ma'noviy munosabatlarning barcha qirralarini, ulardagi xilma–xillikning o'ziga xosligini, ularning bir–biri bilan va tildan boshqa mayda sistema elementlari bilan bo'lgan o'zaro aloqadorligini (leksik paradigmatika), so'zga xos belgilarning semantik xilma–xilligini tilga xos tarzda ifodalashning shart va shakllarini (leksik sintagmatika) o'z ichiga oladi.

O'z nomidan, ya'ni «leksik–semantik» atamasidan ko'rinib turibdiki, u sistemaning ikki xil tabiatini o'rganadi. Birinchidan, leksik semantika tilning semantik sarhadlarida grammatik semantikadan farq qiladi. Ikkinchidan, ushbu sistema yordamida so'z semantikasining lug'at elementi sifatida bo'linishi yuz beradi.

Leksik sistemani tashkil etadigan nominativ vositalar majmuini lug'at tarkibidan farqlashda til sistemasi, lug'at strukturasi va leksik–semantik sistemalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'zlarida so'z va uning ma'nolari o'rtasidagi o'zaro murakkab aloqaning natijasi va ushbu natijalarni umumlashtirishni aks ettiradi. Bunday o'zaro aloqa tilning ikki sohasi, ya'ni nominativ–tasnifiy va leksik birikish bo'yicha amalga oshadi.

Shuning uchun ham leksik–semantik kategoriyalar ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchisi ko'p ma'noli so'zlarning leksik–semantik guruhini aks ettirib, tilda semantik variantlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ularning har biri o'z ma'nolariga ega (leksemalar kabi). Leksemalarning nutqda amalga oshishidagi birliklar *so'z ishlatish* va *leksam* deb ham ataladi. Bu yerda *leks* – nutq birliklarining belgilari asosida analogiya bo'yicha tashkil topgan atama (ya'ni *morf* (morfema) va *fon* (fonema) kabi). So'zning til birligi va nutq birligi sifatida qarama–qarshi qo'yilishi boshqa atamalar bilan ham berilishi mumkin, masalan, *so'z–leksema* va *so'z–bo'lak*. A.I.Smirniskiy ularni leksik–semantik variantlar (LSV) deb ataydi.¹ Boshqacha qilib aytganda, biz so'zlarning har bir aktda qo'llanish jarayonida uning aktual (nutqiy) ahamiyatiga e'tibor qilamiz. G. Paul so'zning butun mazmunini va ahamiyatini ular

¹ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИИЛ, 1959. – С. 42.

ishtirok etadigan alohida aktlarda terminologik jihatdan farqlab berdi, ya'ni birinchisini uzual, ikkinchisini esa okkazional ma'no deb nomlaydi.²

Leksik–semantik kategoriyaning ikkinchi turi ma'lum bir so'zning ma'nolar majmuini emas, balki bir necha so'zlardan tashkil topgan so'zlar guruhining ma'nolarini aks ettiradi. So'zlarni alohida guruhlariga ajratish va tasvirlash, so'zlarning mikrostruktura va paradigmalari, ularni tasniflovchi belgilar, alohida paradigmalarda so'zlar o'rtasidagi ichki aloqaning o'rnatilishi va so'zlarning boshqa so'z guruhlari bilan bo'lgan aloqalari leksik–semantik sistemaning umumiy tadqiqot muammolari tarkibiga kiradi va uning asosiy hal qiluv vazifalaridan birini tashkil etadi.

Leksik–semantik sathning asosiy birligini leksema, ya'ni tilning struktur elementi hisoblangan va o'zida leksik ma'nolar yig'indisini mujassam etgan so'z tashkil etadi. So'z so'z birikmalari tarkibiga kiradi, so'z yasovchilar va morfologik kategoriyalarni qurishda ishtirok etadi, morfema va fonemalarni yaxlit bir holatga keltiradi, so'z birikmalari va gap tarkibida xilma–xil tarzda qayta ishlanadi, mustaqil ma'nolar yoki ma'nolar mikrosistemasini anglatadigan belgilarni o'zida aks ettiradi.¹

Barcha zamonaviy tilshunoslar so'zni tilning eng asosiy birliklaridan biri deb hisoblash bilan birga, uning belgi tabiatiga ega ekanligini ham tan oladi. Buning uchun so'zning ma'lum predmet va tovushlar majmui o'rtasidagi shartli aloqaga asoslangan holda aniq bir predmet haqida tushuncha paydo qilish xususiyati boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi. So'zning jaranglashi (tovushga xos qiyofasi) va borliq hodisasi o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Agar bu shunday bo'lmaganda edi, barcha predmet va hodisalar turli xil tillarda turlicha emas, balki bir xil nomlangan bo'lar edi.

So'z tilning asosiy funksional–struktur va yuqori darajali assimetrik birligi hisoblanadi. U semantik va morfologik strukturalarga hamda murakkab semantik tarkibga ega bo'lib, bu xususiyatlar so'zlarning grammatik guruhlari uchun xarakterli bo'lgan konkret leksik ma'nolarda qat'iy tarzda farqlanadi.

² Пауль Г. Принципы истории языка. – М., 1960. – С. 94.

¹ Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: ВШ, 1979. –С.147.

Soʻz umumsemantik tarkibda umumlashgan kategorial belgi hisoblanadi. U maʼlum bir semantik guruhga kiradigan soʻzga xos belgini qabul qiladi. Masalan, soʻzning maʼlum semantik turi bilan mos keladigan sema individual soʻz semantikasi tarkibiga kiradi. Koʻpchilik tillarda toʻliq maʼnoli soʻzlarga oʻxshash semalar u yoki bu soʻz turkumiga va leksik–grammatik turga tegishli boʻlishi orqali oʻzlarining shakliy ifodasini topadi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, tilga xos har qanday belgi, masalan, soʻz yoki FBlar ikki tomonlama mohiyatga ega, yaʼni material qiyofa birligi va mazmun birligi. Bular borliqning maʼlum bir parchasini aks ettirgan holda mustahkamlanadi va bir vaqtning oʻzida tilning boshqa elementlari bilan boʻlgan turli xil munosabatlardan oʻrin oladi. «Soʻz, deb yozadi V.V.Vinogradov, borliqdagi predmet va hodisalarning turli xil tomonlarini umumiy jihatdan aks ettirgan holda ularning real aloqalari boshqa soʻzlar bilan boʻlgan aloqalariga mos keladi va turli xil predmetli–maʼnoviy hamda stilistik guruhlarda ular bilan aloqa oʻrnatadi». U bu haqdagi fikrini yana shunday davom ettiradi: «Soʻzning leksik maʼnosi nafaqat uning berilgan tushunchaga mos kelishiga bogʻliq, balki til sistemasining oʻziga xos xususiyatlariga va soʻz turkumlari qonuniyatlariga aloqadorligi bilan ham bogʻliq boʻlib, bu holat til sistemasida soʻzlarning emotsional va ekspressiv boʻyoqlari orqali konkret leksik aloqalar bilan aniqlanadi».¹

Agar til sistemasi turlicha munosabat, aloqa va tarmoqlar majmui bilan tavsiflansa, u holda tilga xos bunday umumlashmalarning har biri tilni tashkil etadigan birliklarning lingvistik tabiatiga asoslanadi, sistema tasvirining oʻzi esa ushbu birliklar tasviri asosiga quriladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar FBlarga ham taaluqli boʻlib, ular soʻzlar singari nominativ va kommunikativ funksiyalarga ega boʻlgan til belgisi hisoblanadi.

Leksik–semantik sath leksik birliklarga xos maʼnoviy munosabatlarning barcha qirralarini, ulardagi xilma–xillikning oʻziga xosligini, ularning bir–biri bilan

¹ Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII- XIX веков. – М., 1982. – С.6, 83-84.

va tildan boshqa mayda sistema elementlari bilan bo'lgan o'zaro aloqadorligini, so'zga xos belgilarning semantik xilma-xilligini tilga xos tarzda ifodalashning shart va shakllarini o'z ichiga oladi.

Tilga xos har qanday belgi, masalan, so'z yoki FBlar ikki tomonlama mohiyatga ega, ya'ni material qiyofa birligi va mazmun birligi. Bular borliqning ma'lum bir parchasini aks ettirgan holda mustahkamlanadi va bir vaqtning o'zida tilning boshqa elementlari bilan bo'lgan turli xil munosabatlardan o'rin oladi.

Tildagi frazeologik sistema tushunchasini ochib berish obyektning o'zini, ya'ni frazeologiyani tasvirlash jarayoni bilan bog'liq. Bunda undagi birliklar tarkibi, ular o'rtasidagi til va nutq sistemasini qamrab olgan aloqa va munosabatlarga e'tibor qaratilishi lozim.

Shularni ta'kidlash joizki, sintaktik erkin so'z birikmalar fransuz tilidagi mustaqil so'z turkumlarining bir qancha turlarini to'ldirishning muhim manbai hamda til leksik tarkibini boyitishning asosiy vositasi bo'lib hisoblanar ekan, erkin so'z birikmasi bilan frazeologik birlik o'rtasidagi farqni anglab yetish lozimdir. Negaki, ular bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Zero, erkin so'z birikmalar turg'un so'z birikmalardan, ya'ni frazeologik birliklardan o'z tarkibidagi mavjud so'zlarning so'zma-so'z leksik ma'nosi bilan ahamiyatli sanalsa, turg'un so'z birikmalar esa, tarkibidagi mavjud so'zlarning umumiy yig'indisi orqali ifodalanayotgan leksik ma'nosi bilan ahamiyatlidir.

Yuqoridagilarga asosan, FBlardagi farqli belgilar sifatida idiomatiklik, turg'unlik, obrazlilik va boshqa xususiyatlarni ko'rsatish mumkin. Keltirilgan xulosalar FBlarning lingvistik mohiyatini aniqlashdagi turli xil izohlarga imkon yaratir ekan, bu holat ularni so'z va mustaqil so'z birikmalaridan farqlash imkonini beradi. Bular quyidagilardan iborat:

1) FBlar so'zdan farqli o'laroq ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan va tarkibida bittadan kam bo'lmagan mustaqil so'z mavjud bo'lgan tilga xos alohida ko'rinishli murakkab birlikdir;

2) FBlar mustaqil so'z birikmalaridan farq qilgan holda o'zlaridagi turg'unlik darajasining turlicha ekanligiga qaramasdan, o'z leksik tarkiblarining turg'unligi bilan, so'z birikmalari esa o'z elementlari o'rtasidagi sintaktik aloqaning erkinligi bilan tavsiflanadi;

3) FBlarning eng muhim va xususiyatli struktur belgilaridan biri ularning alohida so'zlardan yasalganligi bo'lib, bunday xususiyat fransuz tilidagi FBlarni so'zlardan farqlar ekan, biroq u muayyan leksik tarkibga va ma'no birligiga ega bo'lgan turg'un nofrazologik birliklardan farqlay olmaydi;

4) FBlar gapiruvchi nutqida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki ular tilda oldindan tayyor holatda bo'lsa, so'z birikmalari esa nutq jarayonida to'g'ridan-to'g'ri hosil bo'ladi;

5) So'z birikmalari tarkibidagi elementlar gap ichida alohida-alohida gap bo'laklari bo'la olsa, FBlar tarkibidagi elementlar o'rtasidagi grammatik munosabatlar esa faqat shu birikma ichidagina amal qila oladi yohud FB bir butun birlik sifatida gap ichida faqat bir gap bo'lagi o'rnida kelishi mumkin.

1.2. Fransuz frazeologiyasi tilshunoslikda alohida fan sifatida

Sh. Ballining frazeologiya va FBlar xususida ilgari surgan g'oyasidan so'ng fransuz tilshunosligida tadqiqotchilar o'rtasida munozara va mushohadalarning avj olishi kutilgan edi. Biroq, fransuz frazeologiyasi tarkibi xilma-xil va ancha boy bo'lishga qaramasdan, frazeologiyaning nazariy asoslarini o'rganishga hech qaysi bir tilshunos qo'l urmadi. Bu holat fransuz tilshunosligida FBlar mohiyatini aniq va yagona tarzda tushunish mavjud emasligi bilan izohlanadi. Fransuz tilshunoslari o'rtasida frazeologiyaning obyektini hisoblanmish FBlar turlicha talqin etilgan. Xususan, mashhur fransuzcha frazeologik lug'atlar muallifi Moris Ra boshqa tadqiqotchilar singari FBlarni *expression*, *façon de parler* kabi turli atamalar bilan nomlab kelgan. Tadqiqotchilar o'rtasidagi bunday nomutanosiblik, ya'ni FBlarni bunday tarzda keng talqin etilishi ularning yakdil bir qarorga jipslasha olmaganligidan va FBlarning nazariy asoslarini ochib bera olmaganligidan, qolaversa, frazeologik birliklar bilan nofrazologik birliklar o'rtasidagi farqni anglab

olish mumkin emasligidan dalolat beradi. Binobarin, Moris Raning frazeologik lug'atiga nazar tashlasak, u yerda metaforik ma'noli yakka so'zlarning ham frazeologik birlik tariqasida berilishi juda ajablanarlidir. Masalan, *bernique*, *un micmac*, *une poire* so'zlari shular jumlasidandir. Vaholanki, J.Maruzo o'zining lingvistik terminlar lug'atida *locution* atamasini ikki xil talqin etadi. Birinchi holatda ushbu atama keng ma'no kasb etib, *iboraning* sinonimi sifatida qo'llanilsa, tor ma'no kasb etganda esa bir necha so'zlar yig'indisi ma'nosini anglatadi.

FBlarni frazeologiyaning obykti sifatida ancha aniqroq va batafsil talqin etilishi P. Giro asarlarida o'z aksini topgan : *expression constituée par l'union de plusieurs mots formant une unité syntaxique et lexicologique*. U bu yerda quyidagi xususiyatlarni FBlar uchun xarakterli holat deb ta'riflaydi : 1. shakl va ma'no birligi – *unité de forme et de sens* 2. grammatik va leksik normalardan chekinish - *écart de la norme grammaticale ou lexicale* 3. maxsus metaforik ma'no - *valeurs métaphoriques particulières*.

Bu yerda birinchi va ikkinchi xususiyat FBlarga xos bo'lishi mumkin. Biroq, uchinchi xususiyat barcha FBlarga xosligi noo'rindir. Negaki, hatto ko'pchilik FBlar o'zlarida metaforik ma'noni aks ettirmasligi ham mumkin. Masalan, *bel et bien*, *peu ou prou* iborolari shular jumlasidandir. P. Giro keltirgan ikkinchi xususiyat, ya'ni grammatik va leksik normalardan chekinish xususiyati FBlarning aynan o'ziga xosligini namoyon etuvchi holatlardan biri bo'lib hisoblanadi. U bu xususiyat zamirida arxaizm hodisasi mavjudligiga ishora qilgan.

Frazeologiya va FBlar borasida Sh. Balli ilgari surgan g'oya fransuz tilshunoslarining tadqiqot obyektiga asos bo'la olmadi. Afsuski, Sh. Balli g'oyasini rus tilshunoslari davom ettirdilar.

So'nggi vaqtlarda tilshunoslikda matn va lug'atlar (alohida janr matni sifatida) lingvistikasining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda va matnning ichki lingvistik

tipologiyasini har tomonlama o'rganish imkoniyatlari tug'ilmoqda.² Hozirgi zamon umumiy, qiyosiy tipologik, roman, german, slavyan, turkiy tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri - so'zning lingvistik statusi hisoblangan frazeologik birliklar (keyinchalik FB) muammosi alohida aspektni tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda alohida tillar, jumladan, rus, ingliz, nemis va fransuz tillarining frazeologik sistemasini yoritish borasida anchagina tajriba orttirilgan. Biroq, til sistemalar majmui ekan, u har qanday sistema o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi yoki tilning boshqa sistemalari bilan qarama-qarshi o'rganilishini ham taqozo etadi. Bu holat frazeologik sistemani leksik sistema bilan qarama – qarshi qo'yilishini keltirib chiqaradi. Shuningdek, u frazeologiya leksik sistemaga kiradimi, (shu jumladan, leksik – semantik sistemaga) yoki u tilning alohida sistemasini tashkil etadimi, degan munozarali muammolarni hal etishda aynan leksema va FB o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynaydigan zaruriy material sifatida xizmat qiladi.¹

Frazeologiyaning hozirgi holati insonning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi FBlarining genetik manbalarini qidirish bilan tavsiflanadi. Bu holat boshqa bir tomondan, ma'lum tillar guruhi va alohida konkret tillar frazeologiyasi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va milliy bog'liqligi jihatidan tadqiq qilinadi.

Shuni qayd qilish lozimki, frazeologiyaning shakllanishi va rivojlanishidagi ekstralingvistik omillarga bo'lgan qiziqish kun sayin oshib borayotganligiga qaramasdan, uni tarixiy manbalarga nisbatan diaxronik asosda, tarixiy-ijtimoiy nuqtai nazardan o'rganishga kam e'tibor qaratilmoqda. Bu ayniqsa rus frazeologiyasi va bir qator g'arbiy Yevropa tillari frazeologiyasidan ancha ortda qolgan fransuz frazeologiyasiga tegishlidir.

Haqiqatan ham, A.G. Nazaryan bu borada ancha jiddiy kamchiliklarning o'rnini to'ldirdi va uning fransuz tarixiy frazeologiyasi sohasidagi tadqiqotlari bu sohada yangi

² Abduazizov A.A. English Phonetics. A theoretical course. – Tashkent: NUU, 2006. – 256 p.; Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. - 125с.; Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. Ташкент: Фан, 2005. - 268 с.

¹ Квантитативная лингвистика и семантика. Вып. 1. – Отв. ред. Полянский С.М. – Новосибирск: Новосиб. гос. пед. ун-т, 1999. –С.14-15.

sahifa ochdi.² Bunda eng muhimi shundaki, romanist–olimlar nafaqat IX asrdan to XX asr frazeologiyasining tarixiy taraqqiyotidagi keng bo'shliqni to'ldirdi, balki birinchi bo'lib, turli xil bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini birma – bir aniq tasvirlab berish orqali frazeologiya tarixini davrlarga bo'lish g'oyasini ilgari surdi.

Fransuz frazeologiyasining takomillashish yo'li, shubhasiz, A.G. Nazaryan tomonidan ochib berilgan. U sof FBlar turg'un birikmalar ichidagi maqollar sonini qisqartirish orqali (ulardagi tor tushunchalarda) tilda o'zlariga doimiy yo'l ochib olganini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda tilshunoslar so'zlar o'rtasidagi sistem aloqalar masalasini o'rta tashlamoqda. Shunga asosan, biz ham fransuz tili materialiga asoslangan holda frazeologik birliklarning ichki va tashqi tavsifiga e'tibor qaratib, ularga xos sistem munosabatlarni tadqiq qilishga harakat qildik. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, biz “sistem-sath” atamasi orqali frazeologiyani tilning alohida sathi sifatida emas, balki ma'lum bir sath tarkibidagi obyekt sifatida, qolaversa, tilni tasvirlash predmeti sifatida talqin qilmoqchimiz. Vaholanki, V.M. Solnsev ta'kidlaganidek, “sath” atamasi yordamida turli xil mayda sistemalarni, shuningdek, tilni tadqiq qilishning turli bosqich va fazalarini tavsiflash ham mumkin. Bunda “sath” atamasi tasvirlash predmeti sifatida xizmat qiladi. (S помощью etogo termina характеризуют различные подсистемы, а также различные этапы и фазы исследования языка. ... “уровень” своеобразно обозначат само явление как предмета описания.)¹

Biroq frazeologiya tilshunoslikning alohida mustaqil bir sathi bo'la olishligini e'tirof etuvchi olimlar ham yo'q emas. Xususan, rus frazeologisti V.L. Arxangelskiy tilning boshqa sistemalari bilan aloqada bo'lgan frazeologik tarkibni “frazeologik sath” deb nomlagan edi.² Bu g'oyani nemis frazeologisti V. Flyasher (W. Fleischer) davom ettirgan holda frazeologizmlarni maxsus frazeologik sathni (*phraseologische Ebene*) tashkil etuvchi “avtonom struktura” deb hisoblaydi.³ Shuningdek, A.V. Kunin ingliz

² Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – М.: ВШ, 1987. – 288 с.

¹ Солнцев В.М. О понятии уровня языковой системы // Вопросы языкознания. – М., 1972. -№ 3. – С. 3.

² Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке: Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов н/Д: Изд-во Ростов. ун-та, 1964. – С.260.

³ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. –Tübingen: Niemeyer, 1997. – S. 7.

frazeologiyasi materiali asosida FB va so'zlar til strukturasining alohida sathlariga tegishli ekanligini,⁴ qolaversa, tilning frazeologik sistemasini "fazeologik sath" hisoblab, uni FB komponentlari va o'zaro FBlar o'rtasidagi munosabatlar majmui ekanligini ta'kidlaydi.⁵ Bundan tashqari, fransuz frazeologiyasi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan A.G. Nazaryan ham frazeologiyani tilning alohida sathi deb nomlash vaqti yetganligini e'tirof etadi.⁶

1920- yillarga kelib, til borasidagi ilmiy tadqiqotlar juda avjiga chiqdi. Xususan, Ye.D.Polivanov birinchi bo'lib, frazeologiyani fan sifatida ajratib o'rganish zarurligini ta'kidladi. 1940-50- yillar davomida V.V. Vinogradovning bu fan rivojiga qo'shgan hissiy tilshunoslik tarixida muhim iz qoldirdi.

Shuningdek, bu davrga kelib, tilshunoslar frazeologik muammolar doirasini kengaytirishga, ya'ni frazeologik birliklarni turli xil aspektlar nuqtai nazaridan tadqiq etish g'oyasini ilgari surdi. V.L.Arangel'skiy, O.S.Axmanova, L.I.Royzenzon, N.M. Shanskiy singari bir qator tilshunoslar frazeologiyaning maxsus fan sifatida shakllanishiga alohida hissa qo'shdilar. Qolaversa, rus tilshunoslari nafaqat rus tili, balki xorijiy til frazeologiyasi ustida ham tadqiqot ishlari olib bordi. Jumladan, germanist va romanist tilshunoslardan N.N. Amosova, A.V. Kuninlar ingliz, I.I.Chernisheva nemis tili, V.G.Gak, Ya.I.Resker, Z.N.Levit, O.M.Shvars, A.G.Nazaryanlar fransuz tili frazeologiyasi borasida tadqiqot ishlari olib bordi. Ular o'z tadqiqotlarida frazeologiyaning umumnazariy va xususiy muammolarini tadqiq etishga harakat qildilar. Fazeologiyani bu kabi nazariy jihatdan o'rganish ko'pchilik tilshunoslar tomonidan frazeologik hodisalarning ma'lum bir sistema asosida mavjud ekanligini tan olishga yordam berdi. Bu esa tilshunoslar o'rtasida frazeologiyaning til sathlari orasida o'z o'rnini topishi kerak, degan g'oyaning paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi kunga kelib, bu muammo hanuz o'z yechimini topmaganiga

⁴ Кунин А.В. Морфологические особенности компонентов фразеологической единицы в современном английском языке // Иностранные языки в школе. – М., 1967. -№2. –С. 10.

⁵ Кунин А.В. Фразеологический уровень языка // Уровни языка и их взаимодействие. – М., 1967. –С.90.

⁶ Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка – М.: ВШ, 1976. –С.23.

qaramasdan, frazeologiya tilshunoslikda maxsus fan sifatida o'zining mustahkam mavqeyiga ega bo'ldi.

1930-70- yillarda frazeologiya sohasidagi leksikografik tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Xususan, V.V.Potoskiyning *Fransuzskiye idiomaticheskiye vyrajeniya*, A.A.Сыреушыёkovaning *Sbornik fransuzskix idiomaticheskix oborotov i pogovorok*, L.G.Lyubanovaning *Sbornik fransuzskix slovasochetaniye idiomaticheskix vyrajeniy*, A.V.Kuninning *Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar*, L.I.Binovichning *Nemesko-russkiy frazeologicheskiy slovar*, Ya.I.Resker tahriri ostidagi *Fransuzsko-russkiy frazeologicheskiy slovar* nomli lug'atshunoslik borasidagi ishlari shular jumlasidandir. Bu kabi lug'atlar to'liq frazeologik material bilan boyitilgan bo'lib, ularning badiiy asarlardan olingan namunalarga asoslanganligi bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu bo'limda fransuz frazeologiyasining tilshunoslikda alohida fan sifatidagi o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, dastlab Sh. Balli frazeologiya va FBlar xususida ilgari surgan g'oyalarini hech qaysi bir tilshunos davom ettirmadi. U ilgari surgan g'oya fransuz tilshunoslarining tadqiqot obyektiga asos bo'la olmadi.

Afsuski, Sh.Balli g'oyasini rus tilshunoslari davom ettirdilar.

Fransuz frazeologiyasining takomillashish yo'li , shubhasiz, A.G.Nazaryan tomonidan ochib berilgan.

1.3. Mehnat konseptiga oid frazeologik birliklarni struktur, grammatik va semantik jihatdan tasniflash tamoyillari

Fransuz FBlarini klassifikatsiyalashda dastlab uch turga ajratamiz:

- 1) FBlarni struktur jihatdan tasniflash;
- 2) FBlarni tildagi funksiyasiga ko'ra tasniflash;
- 3) FBlarni semantik jihatdan tasniflash.

FBlarni struktur jihatdan tasniflashda ularga xos xususiyat bu FBlarning struktur grammatik belgilariga asoslanadi va ular ham 3 turga ajraladi:

- 1) Nopredikativ FBlar ;
- 2) Predikativ FBlar;
- 3) Qisman predikativ FBlar.

Nopredikativ FBlarda kesim ishtirok etmaydi va ular ikki turga bo'linadi:

- 1) Bir unsurli FBlar ;
- 2) Frazemalar.

Bir unsurli FBlar bir mustaqil so'z va bir yoki ikki yordamchi so'zdan tashkil topadi va unda umumsintaktik aloqaga asoslanadi. Bunga misol tariqasida quyidagi birikmani keltirishimiz mumkin:

Dans l'intention de (+ l'infinitif)- biror bir ishni atayin qilmoq.

Shundan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, fransuz tilida bir unsurli mehnat konseptiga doir FB'larni kamroq uchratar ekanmiz.

Nopredikativ FB'larning ikkinchi turi, ya'ni frazemalarda ikki va undan ortiq mustaqil so'z mavjud bo'ladi va ular tobe va bog'li aloqaga asoslanadi.

Misol uchun :

- a) *Hommes à gages* – yollanib ishlovchi odam (yollanma ishchi) ;
- b) *Une grande affaire*- mushkul ish ;
- c) *Travaux d'Hercule* – Gerkulesning o'n ikkita jasorati, ulkan mehnati ;
- d) *Le fin d'une affaire* -ishning mohiyati, asosiy maqsadi ;
- e) *Jours ouvrables* – ish kunlari;
- f) *Travailler comme une bête de somme* -

Eshakdek ishlamoq, tinim bilmasdan ishlamoq.

Predikativ FB'larning ham ikki turi mavjud:

- 1) Ochiq strukturali;
- 2) Yopiq strukturali.

Ochiq strukturali FBlarda tugallanmagan fikr ifodalanadi. Biz fransuzcha “mehnat” konseptiga oid maqol va matallar tahlilida ochiq strukturali FB'larni uchratmadik.

Yopiq strukturali FBlarda esa tugallangan fikr ifodalanadi va bunda mehnat konseptiga oid ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin:

a) *Travailler avec amour , c'est semer demain avec tendresse –*

Mehr bilan ishlash bu mehr bilan ertani ta'minlashdir ;

b) *S'excuser de travailler , c'est paresse-*

Ishlashdan qochish , bu dangasalikdir ;

c) *Mauvais ouvrier ne trouve jamias bon outil-*

Yomon ishchi hech qachon yaxshi asbob topa olmaydi ;

d) *Un bon travail n'a pas de prix-*

Yaxshi ishning bahosi yo'q (tengsiz) ;

e) *Le mérite est de travailler selon ses forces-*

Obro' kuch bilan ishlashdadir .

Qisman predikativ FBlarning farqi ularning to'ldiruvchi (vositali, vositasiz), holga ega bo'lishi yoki ergash gap sifatidagi aniqlovchiga ega bo'lishidir. Bular ham mehnat konseptiga doir bir qancha misollar uchraydi:

a) *Toujours pêche qui en prend un –*

Harakat qilgan baribir maqsadiga erishadi ;

b) *La main qui travaille peu a le tact plus délicat-*

Kam ishlagan qo'l nozik bo'ladi.

Fransuz tili FBlarining funksiyasi bo'yicha turlari.

Bajaradigan funksiyasi bo'yicha fransuzcha “mehnat” konseptiga oid FBlarni ikki katta guruhga ajratamiz. Birinchi guruhga muloqot funksiyasiga ega iboralar kiradi. Bu guruhning barcha iboralari predikatli tizimga ega .

Ikkinchi guruhga yuqorida aytilgan funksiyasiga ega bo'lmagan va so'z yoki so'z birikmasiga nisbiy iboralar kiradi.

Bu guruh iboralari ko'pincha predikatsiz tizimga ega. Ular orasida predikatli so'z birikmalari uchraydi. Bular o'z predikatligini yo'qotgan gap tizimli iboralardir. Bu kabi iboralar muloqot ma'nosiga ega emas.

Xususan, muloqotga bog'liqligi bo'yicha iboralar muloqotsiz va muloqotliga bo'linadi.

Muloqotsiz iboralar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi:

nokommunikativ FBlarga va kommunikativ FBlarga ajratamiz.

Nokommunikativ FBlar soʻz va soʻz birikmasiga teng boʻladi va predikativlikka ega boʻlmaydi. Ularga ham koʻplab misollarni keltirishimiz mumkin:

- a) *jours ouvrables*- ish kunlari;
- b) *les trois huit* - sakkiz soatlik ish kuni;
- c) *à deux mains*- qoʻli gul (*qoʻlidan hamma ish keladigan*) ;
- d) *main blanche*- qoʻli gul, mehnatsevar;
- e) *travail noir*- naridan-beri qilingan ish.

Va nokommunikativ FB-larni ham toʻrt turga ajratamiz:

- 1) Nominativ FBlar;
- 2) Yordamchi FBlar;
- 3) Undov FBlar;
- 4) Modal FBlar;

1) Nominativ FB-larda bosh soʻz ot soʻz turkumi bilan ifodalanadi. Nominativ FBlar nominativ funksiyaga ega. Ular predmet(shaxs va narsa) , hodisa , harakat , holat , sifatni bildirishi mumkin . Bu guruhga asosan predikatsiz va qisman predikatli iboralar kiradi .

Nominativ iboralar farqlanishi soʻz bilan bogʻliq boʻlib , ularni mos keladigan leksik-gramatik toifalarga ajratish mumkin . Aytish joizki , iboralarning nominativ funksiyasi , soʻz atamalarining va atamali birikmalar nominativ funksiyasidan farq qiladi . Nominativ FBlarga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin :

- a) *panne sèche*- ishning yurishmasligi;
- b) *les cinq huit*- besh kunlik ish haftasi;
- c) *homme à poil* (*yoki bougre à poil*)- ishning koʻzini biladigan odam;
- d) *le fin d'une affaire* - ishning mohiyati, asl maqsadi;
- e) *la queue d'une affaire*- ishning bajarilmagan qismi.

2) Yordamchi FBlar tilda koʻmakchi funksiyasini bajaradi . Ular xuddi koʻmakchilar kabi mustaqil maʼnoga ega emas va gap boʻlagi boʻla olmaydi. Bu guruhga bir tomonli va predikatsiz iboralarning bir qismi kiradi.

Yordamchi FBlar fransuz tilida gapda murakkab predlog va bog'lovchi sifatida namoyon bo'ladi va o'z navbatida predlogli va bog'lovchili iboralarga bo'linadi.

3) Undov FBlar gapda his-tuyg'u funksiyasini bajaradi. Bu guruhga bir tomonli ibora va frazemalar, shuningdek, predikatsiz iboralar kiradi.

Undov iboralar gapda undov so'z sifatida ishlatiladi.

4) Modal FBlar so'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini yoki xabarga berilgan bahosini anglatadi. Bu munosabat yoki baho xarakteriga qarab, ular tasdiq yoki inkor, davomiylik, istak, imkon ma'nolarini bildirishi mumkin. Bu guruhga predikatsiz iboralar kiradi.

Fransuzcha mehnat konseptiga doir maqol va matallarni tahlil qilish jarayonida yordamchi, bog'lovchili va modal FBlarni deyarli uchratmadik.

Kommunikativ FBlar gapga teng va predikativlikka ega bo'ladi. Misol uchun:

a) *Un bon travail n'a pas de prix*- yaxshi ishning bahosi yo'q (tengsiz);

b) *Cela sent le brûle*- ish o'ngidan kelmayapti;

c) *Le mérite est de travailler selon ses forces* –

Obro' kuch bilan ishlashdadir;

d) *Toujours pêche qui en prend un-*

Harakat qilgan baribir maqsadiga erishadi;

e) *La main qui travaille peu a le tact plus délicat-*

Kam ishlagan qo'l nozik bo'ladi;

f) *Mauvais ouvrier ne trouve jamais bon outil* –

Yomon ishchi hech qachon yaxshi asbob topa olmaydi.

Kommunikativ FBlar ham o'z ichida ikki turga ajraladi:

1) Idiomalar;

2) Maqollar.

1) **Idiomalar**, ya'ni tarkibi ikki tomonlama tushunchaviy tobelik iboralari. Ular tarkibi jipslashuvi darajasi har xilligiga qaramay, yaxlit global ma'noga ega.

Idiomalarga quyidagi misollarni keltiramiz:

a) *Cela sent le brûle*- ish o'ngidan kelmayapti;

b) *C'est la mer à boir*- bu juda mushkul ish.

Fransuzcha mehnat konseptiga oid FBlarda idiomalarni maqollarga nisbatan kamroq uchratdik. Maqollarga esa ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin:

- a) *Travailler avec amour, c'est semer demain avec tendresse-*
Mehr bilan ishlash bu mehr bilan ertani ta'minlashdir ;
- b) *Le mérite est de travailler selon ses forces-*
Obro' kuch bilan ishlashdadir ;
- c) *Toujours pêche qui en prend un-*
Harakat qilgan baribir maqsadiga erishadi;
- d) *La main qui travaille peu a le tact plus délicat-*
Kam ishlagan qo'l nozik bo'ladi ;
- e) *Un bon travail n'a pas de prix-*
Yaxshi ishning bahosi yo'q(tengsiz);

I bobga xulosa

Bu bobga xulosa tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin :

1) Yuqoridagilarga asosan, FBlardagi farqli belgilar sifatida idiomatiklik, turg'unlik, obrazlilik va boshqa xususiyatlarni ko'rsatish mumkin. Keltirilgan xulosalar FBlarining lingvistik mohiyatini aniqlashdagi turli xil izohlarga imkon yaratar ekan, bu holat ularni so'z va mustaqil so'z birikmalaridan farqlash imkonini beradi. Bular quyidagilardan iborat:

a) FBlar so'zdan farqli o'laroq ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan va tarkibida bittadan kam bo'lmagan mustaqil so'z mavjud bo'lgan tilga xos alohida ko'rinishli murakkab birlikdir;

b) FBlar mustaqil so'z birikmalaridan farq qilgan holda o'zlaridagi turg'unlik darajasining turlicha ekanligiga qaramasdan, o'z leksik tarkiblarining turg'unligi bilan, so'z birikmalari esa o'z elementlari o'rtasidagi sintaktik aloqaning erkinligi bilan tavsiflanadi;

c) FBlarining eng muhim va xususiyatli struktur belgilaridan biri ularning alohida so'zlardan yasalganligi bo'lib, bunday xususiyat fransuz tilidagi FBlarni

so'zlardan farqlar ekan, biroq u muayyan leksik tarkibga va ma'no birligiga ega bo'lgan turg'un nofrazologik birliklardan farqlay olmaydi;

d) FBlar gapiruvchi nutqida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki ular tilda oldindan tayyor holatda bo'lsa, so'z birikmalari esa nutq jarayonida to'g'ridan-to'g'ri hosil bo'ladi;

e) So'z birikmalari tarkibidagi elementlar gap ichida alohida-alohida gap bo'laklari bo'la olsa, FBlar tarkibidagi elementlar o'rtasidagi grammatik munosabatlar esa faqat shu birikma ichidagina amal qila oladi yohud FB bir butun birlik sifatida gap ichida faqat bir gap bo'lagi o'rnida kelishi mumkin.

2) Bu bo'limda fransuz frazeologiyasining tilshunoslikda alohida fan sifatidagi o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, dastlab Sh. Balli frazeologiya va FBlar xususida ilgari surgan g'oyalarini hech qaysi bir tilshunos davom ettirmadi. U ilgari surgan g'oya fransuz tilshunoslarining tadqiqot obyektiga asos bo'la olmadi.

Afsuski, Sh.Balli g'oyasini rus tilshunoslari davom ettirdilar.

Fransuz frazeologiyasining takomillashish yo'li , shubhasiz, A.G.Nazaryan tomonidan ochib berilgan.

Bu bo'limda fransuzcha « mehnat » konseptiga oid FB'larni struktur, grammatik va semantik jihatdan tasniflash tamoyillarini ko'rib chiqdik.

Grammatik tuzilishi bo'yicha fransuz tilida FBlar nopredikativ, qisman predikativ va predikativ FB'larga bo'linadi.

Tilda bajaradigan funksiyasi bo'yicha muloqotsiz va muloqotli FB'larga bo'linadi. Muloqotsiz FBlar o'z navbatida nominativ, yordamchi, undov va modal FB'larga bo'linadi.

Ma'nosining o'zaro tobelik darajasi bo'yicha idioma va unilateral FB'larga bo'linadi.

II BOB

FRANSUZCHA MAQOL VA MATALLARDA «*MEHNAT*» KONSEPTI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Maqollar kommunikativlikning eng asosiy ko'rinishi sifatida

Tadqiqotning ushbu bo'limida tilimizning, qolaversa, nutqimizning ziynati hamda ko'rki hisoblangan maqollarning tilda tutgan o'rni, shuningdek, ularning lingvistik mohiyatini ochish va tavsiflash orqali frazeologiyaning kommunikativlik xususiyatini yoritishga harakat qilinadi. Zero, nutqimizni tilda mavjud maqol va matallarsiz tasavvur qilish qiyin. Binobarin, maqol va matallar til frazeologik sistemasining har tomonlama eng boy va eng serqirra manbai bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan, biz ham ushbu mavzuga qo'l urib, “Fransuz frazeologiyasi” nomli ummonga bir tomchi sifatida hissa qo'shmoqchimiz.

Avvalambor, mavzuimizga ancha oydinlik kiritish maqsadida *kommunikatsiya*, *kommunikativ birlik*, *kommunikativlik* kabi atamalarning mazmun mohiyatini aniqlashni joiz deb hisoblaymiz. Xususan, A.Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati» nomli kitobida bunday atamalarga quyidagicha ta'rif beriladi¹:

Kommunikatsiya lotincha *communicatio* - xabar, aloqa so'zidan olingan bo'lib, biror mazmunning til vositalari bilan berilishi va xabar qilinishini ifodalaydi.

Kommunikativ birlik esa mustaqil holda fikr ifodalay oladigan birlik bo'lib hisoblanadi. Tilshunoslikda gap asosiy kommunikativ birlik sifatida qabul qilingandir.

¹ А.Ҳожиёв. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати, -Тошкент, 1985. –Б. 44.

So'zning kommunikativ funksiyasi bu – so'zning fikr (xabar) ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilishidir. Gapning kommunikativ funksiyasi bu – gapning fikr ifodalash vositasi sifatida bajargan vazifasi. Kommunikativ funksiyasiga ko'ra gaplar bir necha turlarga bo'linadi.

Tilning kommunikativ funksiyasi bu – tilning aloqa aralashuv vositasi sifatidagi asosiy vazifasidir. Tilning kommunikativ funksiyasida ikki hodisa farqlanadi, ya'ni fikr olishuv (aloqa aralashuv) va xabar (biror logik mazmunni yetkazish) funksiyasi.

Bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot obyekti hisoblangan maqollar A.V.Kunin tomonidan frazeologik birlik sifatida talqin etiladi¹. Shuningdek, A.V.Kunin maqollarni kommunikativ xususiyatga ega bo'lgan frazeologik birliklar sifatida tavsiflaydi.

Avvalambor, shuni ta'kidlash joizki, biz o'z bitiruv malakaviy ishimizda kommunikativlik hodisasini yoritish maqsadida faqat fransuzcha mehnat konseptiga oid maqollardan foydalanishni lozim topdik. Negaki, maqollar frazeologiya sistemasiga xos kommunikativlik hodisasining eng asosiy namunasi, qolaversa, tayanch nuqtasi bo'lib hisoblanadi.

Fransuzcha maqollarni o'rganish fransuz tilini o'rganish va o'rgatishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, badiiy matnlarni o'qib tushunish jarayonida, ularni tarjima qilish davomida, shuningdek, tilni o'quvchi yoki talabalarga o'rgatish jarayonida ham katta yordam berishi mumkin. Shu bilan birgalikda, maqollarni chuqur o'rganish og'zaki nutqimizning rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi.

Maqol deganda, dastlab, ko'z oldimizda xalq donishmandligining nodir namunalari namoyon bo'ladi. Ular ijtimoiy va maishiy hayotning turfa sohalarini qamrab oladi. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida to'plagan tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy va falsafiy qarashlarini qisqa satrlarda badiiy tarzda ifoda etadi.

Biz fransuzcha maqollarni tahlil qilish jarayonida bir necha turfa mavzularni o'zida mujassam etgan maqollarga duch keldik. Xususan, Vatan va vatanparvarlik,

¹ А.В.Кунин. Англо-русский фразеологический словарь, -Москва, 1967.

mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'rilik va o'g'rilik, yaxshilik va yomonlik, yaxshi so'z va yomon so'z, do'stlik va dushmanlik, tinchlik va notinchlik, botirlik va qo'rqqoqlik, donolik va nodonlik, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik, saxiylik va baxillik, go'zallik va xunuklik, kamtarlik va manmanlik, baxt va baxtsizlik, epchillik va noshudlik, sabr va sabrsizlik, muhabbat va bevafoqlik, tamagirlik va ochko'zlik, umid va ishonchsizlik, taqdir va hayot, imkon va imkonsizlik, ehtiyotkorlik va ehtiyotsizlik va boshqalar shular jumlasidandir.

Ma'lumki, «paremiologiya» atamasi ostida turg'un birikma shaklida tarjima qilinadigan, biroq frazeologik birliklardan farqli ravishda, nisbiy tugallikka ega bo'lgan maqol va matallar, hikmatli so'zlar, topishmoq va tez aytishlar tushuniladi.

Nutqning monologik, dialogik ko'rinishlarida, badiiy asar tarjimasida, albatta, bunday paremiologik birliklardan ham foydalanishimizga to'g'ri keladi. O'z-o'zidan tushunarli, tilga oid bunday birliklarni tarjimada talqin etilishi tarjimondan katta mahorat talab etadi. Chunki bunday paremiologik birliklarning aksariyatini so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Shuningdek, bunday birliklarni tarjima qilishda har bir mamlakatning milliy urf-odatlarini, ma'naviyat va madaniyati, turmush tarzidan kelib chiqqan holda ularga semantik tomondan to'g'ri yondasha bilish talab etiladi.

Jumladan, badiiy asarlardagi maqollarni tarjima qilishda, bizningcha, so'zma-so'z tarjima hech qanday yaxshi samara bermaydi. Maqollarni bir tildan boshqa tilga o'girishda berilgan maqolga o'girilayotgan tilda ma'nosiga ko'ra muvofiq keluvchi boshqa bir maqoldan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqa til maqollarini o'rganish o'sha mamlakatning hayoti va madaniyati bilan tanishishga yordam beradi. Shuningdek, ular hayotda turli xil holatlardagi fikr va g'oyalarning bir-biriga o'xshashligini o'rgatadi. Maqollarning ko'pchiligi qofiyadoshlik asosida tuzilishi, ulardagi obrazlilik hamda ritmik qatorlarning mavjudligi tufayli ular tezda esda saqlanadi va tilning barcha ko'rinishlarida aks eta oladi. Shu bilan birga, maqollarning turli-tumanligi ularni istalgan yoshdagi shaxsga, istalgan rivojlanish darajasidagi kishilarga nisbatan qo'llash yuksak samara beradi. Bu qisqa fikrlardagi chuqur mazmun o'quvchilarning tafakkurinigina rivojlantirib qolmasdan, balki, yana katta tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi.

Maqollarning yodda saqlanishi, albatta, ularning yagona umumiy leksik-sintaktik ma'noni berishi hamda ularning deyarli barchasi boshqa tilda o'z muqobiliga ega ekanligiga ko'ra birmuncha oson kechadi.

Bu bo'limimizga xulosa tariqasida shularni alohida ta'kidlash lozimki, tadqiqotning ushbu bo'limida tilimizning, qolaversa, nutqimizning ziynati hamda ko'rki hisoblangan maqollarning tilda tutgan o'rne, shuningdek, ularning lingvistik mohiyatini ochish va tavsiflash orqali frazeologiyaning kommunikativlik xususiyatini yoritishga harakat qilinadi. **Kommunikativ birlik** esa mustaqil holda fikr ifodalay oladigan birlik bo'lib hisoblanadi. Tilshunoslikda gap asosiy kommunikativ birlik sifatida qabul qilingandir.

2.2. «Mehnat» konseptiga oid maqollarning ifoda vositalari

Fransuzcha «mehnat» konseptiga oid maqollar bir kishiga emas, balki umumjamoaga qaratilgan bo'ladi. Shu jihatdan ularni quyidagi guruhlariga ajratamiz :

- 1) Shaxssiz iboralar bilan ifodalangan maqollar ;
- 2) "Qui" olmoshi bilan ifodalangan maqollar;
- 3) Buyruq shaklidagi maqollar ;
- 4) Mustaqil so'zlar bilan ifodalangan maqollar ;
- 5) Ma'lumot berish ma'nosidagi maqollar.

1) Fransuzcha "mehnat" konseptiga oid **shaxssiz iborali** maqollarda ma'lum ko'zlangan fikr shaxssiz iboralar orqali ifodalanadi. Fransuz tilida asosiy shaxssiz fe'llarga quyidagilar kiradi: *faire, être, pouvoir, neiger, geler, falloir, avoir, exister, arriver*. Biz shulardan fransuzcha "mehnat" konseptiga oid maqollarda *faire, être, avoir, falloir* shaxssiz fe'llarini uchratdik. Bularning ichidan ham eng ko'p uchratganimiz *faire* shaxssiz fe'li bo'ldi. Shaxssiz iboralar bilan ifodalangan maqollar fransuzcha "mehnat" konseptiga oid maqollarda ko'plab uchraydi. Misol uchun:

a) *Il ne faut pas jeter le manche après la congée-*

Boshlagan ishga qo'l siltama ;

b) *Il faut estimer ce que l'homme fait et non pas ce qu'il peut faire –*

Gapiga qarab emas, ishiga qarab bahola;

c) *Il faut travailler qui veut manger-*

Yemoq uchun ishlamoq kerak ;

d) *Il n'y a que le premier pas qui coute-*

Ishni bir boshlash qiyin ;

e) *Il faut bien faire et laisser dire ?-*

Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich;

g) *Il fait bon édifice la fête après la besogne faite-*

Mehnat va dam kishiga hamdam ;

h) *Il n'est jamais tard pour bien faire-*

Xayrli ishning kechi bo'lmas.

2) Fransuz tilida grammatikasida « *qui* » olmoshi asosan ega vazifasida, ergash gaplarda bosh gapni ergash gap bilan bog'lash vazifalarida kelishi mumkin. Biz fransuzcha « mehnat » konseptiga oid maqollar tahlilida « *qui* » olmoshining xuddi shu vazifalarda kelganligini ko'rdik. Va shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek tilida bunday olmosh mavjud emas. « *Qui* » olmoshi bilan ifodalangan fransuzcha « mehnat » konseptiga oid maqollarga quyida bir nechta misollar keltiramiz :

a) *Qui ne travaille pas, ne mange pas-*

Ishlamagan – tishlamaydi.

b) *Toujours pêche qui en prend un-*

Harakat qilgan baribir maqsadiga erishadi.

c) *Ne sait qu'est bien qui mal n'essais-*

Mehnat qancha qiyin bo'lsa, oxiri shuncha shirin bo'ladi.

d) *Ce qui croit soudain périt le lendemain-*

